

25-Mart, 2025-yil

## **INTELLEKTI VA TAYANCH-HARAKAT APPARATI TIZIMI BUZILGAN BOLALAR**

**Abdug’aniyeva Sadoqat Baxtiyorovna**

**Ochilova Munisa Shuxrat qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika: logopediya*

*yo’nalishi 4-kurs talabasi*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada intellekti va tayanch-harakat apparati tizimi buzilgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning o’ziga xos xususiyatlari, ularning nutq rivojlanishidagi muammolar va reabilitatsiya jarayonida qo’llaniladigan usullar ko’rib chiqiladi. Bunday bolalarda nutq buzilishlari, xususan, dizartriya va anartriya kabi holatlar uchrab, ularning kommunikativ qobiliyatlariga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Maqolada logopedik ishlarni tashkil etishda individual yondashuv, sensor integratsiya texnologiyalaridan foydalanish va ko’p tarmoqli yondashuvning ahamiyati ta’kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarning kognitiv faolligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

**Tayanch so’zlar:** intellektual buzilishlar, tayanch-harakat tizimi buzilishlari, nutq buzilishlari, dizartriya, anartriya, logopedik ishlar, sensor integratsiya, individual yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar.

---

### **KIRISH**

Intellekti va tayanch-harakat apparati tizimi buzilgan bolalar bilan ishslashda logopedik yondashuvlar muhim ahmiyatga ega. Bu bolalarda nutq rivojlanishi ko’pincha kechikadi yoki buziladi, bu esa ularning ijtimoiy integratsiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Intellekti va tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarda nutq kamchiliklari, ta’lim va rivojlanish jarayonida duch kelinadigan uammolardan biridir. Nutq kamchiliklari bo’lgan bolalar jamiyatda o’z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Nutqni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar so’nggi yillarda yangi imkoniyatlар yaratgan, bu esa intellekti va tayanch-harakat apparati tizimi buzilgan bolalarda nutq nuqsonlarini bartaraf etishda samarali yondashuvni taqdim etadi. Ushbu maqolada bunday bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning o’ziga xos xususiyatlari, muammolari va yechimlari ko’rib chiqiladi.

Intellektual va tayanch-harakat tizimi buzilishlari: umumiy tavsif

Intellektual rivojlanish buzilishi bolalarning kognitiv qobiliyatları, o’rganish qobiliyatı va muammolarni hal qilish ko’nikmalariga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Tayanch-harakat tizimi buzilishlari esa mushaklar tonusi, muvozanat va harakat koordinatsiyasidagi muammolar bilan tavsiflanadi. Bu ikki turdagи buzilishlar birgalikda uchraganda, bolalarning nutq rivojlanishi yanada murakkablashadi.

Nutq buzilishlari va ularning sabablari

25-Mart, 2025-yil

Intellektual va tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarda nutq buzilishlari ko’pincha dizartriya shaklida namoyon bo’ladi. Dizartriya nutq apparati mushaklarining nazoratidagi muammolar tufayli tovushlarni to’g’ri talaffuz qila olmaslikdir. Bu bolalarda nutqning ravonligi, ohangi va tezligi buzilishiga olib keladi. Natijada intellektual va tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarda nutqning sezilarli darajada o’zgarishi, talaffuz ohangining noaniqligi namoyon bo’ladi. Og’ir holatlarda anartriya, ya’ni nutqning to’liq yo’qligi kuzatilishi mumkin.

Logopedik ishlarni tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari

Intellektual va tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarda uchraydigan turli nutq buzilishlarini bartaraf etish maxsus yondashuvni talab qiladi. Olib boriladigan logopedik-korreksion ishlar bosqichma-bochqich tashkil etilishi zarur. Bunday bolalar bilan logopedik ishlarni olib borishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

1. Individual yondashuv: Har bir bolaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, individual rivojlanish dasturlari tuzish zarur.
2. Sensor integratsiya texnologiyalari: Sensor integratsiya usullari orqali bolalarning sezgi tizimlarini rivojlantirish, bu esa ularning nutq va kommunikativ qobiliyatlariga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi.
3. Ko’p tarmoqli yondashuv: Logoped, defektolog, psixolog va fizioterapevtlar hamkorligida kompleks reabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish muhimdir.
4. Texnologiyalardan foydalanish: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarning kognitiv faolligini oshirish mumkin.
5. Ota-onalar bilan hamkorlik: Intellektual va tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalar ota-onalari bilan o’zaro hamkorlikni yo’lga qo’yish.

Intellektual va tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalar bilan ishlashda logopedik yondashuvlar kompleks va individual bo’lishi kerak. Sensor integratsiya texnologiyalari, ko’p tarmoqli yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali bu bolalarning nutq va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mo‘minova L.R. “Maxsus psixologiya”. Samarqand davlat universiteti, 2007.
2. “Korreksion pedagogika va logopediya”. Guliston davlat universiteti, 2019.
3. “Defektologiya asoslari”. Guliston davlat universiteti, 2020.
4. “Logopediya”. Renessans ta’lim universiteti, 2023.
5. “Pedagogik diagnostika va korreksion pedagogika”. Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2019.